

AGROLOGISTIKADA AVTOTASHUVLARNI SAMARALI BOSHQARISH

Gulzodaxon Raximova Baxromovna

Andijon tuman 1 son kasb hunar maktabi maxsus fan o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7298489>

Annotatsiya: Ushbu tezisda jahonda agrologistika sanoatining rivojlanishi, uni O'zbekistondagi istiqbollarni belgilash masalalari hamda olib borilayotgan islohotlar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: agrologistika, fermer xo'jaligi, iqtisodiyot, axborot, texnologiya, moliya, infratuzilma.

Ma'lumotlarga ko'ra, G'arbiy Yevropada mahsulot ishlab chiqarishga ketadigan vaqtning deyarli 98 foizi moddiy-texnik-ta'minot yo'nalish-lari (xom-ashyoni yetkazib berish, tayyor mahsulotlarni tashish, ularni omborlarga joylash va saqlash)ga sarf bo'ladi. Umumiy vaqtdan ishlab chiqarishga atigi 2 foizgina, transportirovkaga 50 foiz sarflanadi. Bundan tashqari G'arbiy Yevropa mamlakatlarida barcha faoliyatlar uchun moddiy-texnik ta'minot bilan bo'ladigan xarajatlar milliy yalpi mahsulotning 13 foiz qiymati miqdorini tashkil qiladi. Bu qiymatning taqsimoti quyidagicha: transportirovkaga 41 foiz, mahsulotni saqlashga 21 foiz, moddiy zaxiralarga 23 foiz, ma'muriy xarajatlarga 15 foiz sarflanadi"[3].

Logistikaning hali hanuz yagona muayyan talqini yo'q. AQShning logistika menejmenti kengashi uni quyidagicha tariflashni tavsiya etadi: "Logistika — bu menejmentning integral quroli bo'lib, strategik, taktik va operativ biznes maqsadlari, ya'ni iste'molchilarning mahsulot va xizmatlarga bo'lgan pirovard talabalarini qondirish, material va servis xizmatlari oqimini boshqarish hamda bu oqimni axborot va moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashga aytiladi"[4].

Agrosanoat sektorida ishlab chiqarish agrologistikasini 4 ta bo'limga ajratish maqsadga muvofiq.

- I. Ishlab chiqarish:
 - yer haydash;
 - ekish;
 - yig'ib-terib olish kabi ishlar.
- II. Ta'minot:
 - mineral o'g'itlar;
 - texnika va mexanizmlar;
 - ehtiyot qismlari va boshqalar.
- III. Transportirovka, saqlash va qayta ishlash:
 - mahsulotlar va boshqa yuklarni tashish;

- sovuqxonalar tashkil etish;
 - mahsulotlarni qayta ishlash, qadoqlash va hokazolar.
- IV. Mahsulotlarni sotish va marketing faoliyati:
- bozorni o'rganish;
 - reklama;
 - fermerlarga mahsulot yetishtirish bo'yicha asosli takliflar tayyorlash, axborot bilan ta'minlash va boshqalar.

Agrologistikani taxminan shunday tizim asosida tashkil etish ko'plab muammolarni malakali hal etish imkonini beradi. Masalan, huddudagi fermer xo'jaliklarini urug' bilan ta'minlovchi mutaxassis urug'ni fermerga nisbatan yaxshiroq tushunadi. Yoki yetishtirilgan mahsulotni sotish bo'yicha logistika xizmatida ko'proq ma'lumot bo'ladi va hokazo. Bu bilan ishlar barcha jabhalarda tizimli va omilkorlik bilan tashkil etiladi. Odatda yuqorida ta'kidlab o'tilgan birinchi bo'lim logistikaning funksional vazifasiga kiritilmaydi. Agar bu bo'lim ham agrologistikaning tarkibidan o'rin olsa, agrotexnologik tadbirlar to'laqonli amalga oshiriladi.

Agrologistika fermer xo'jaliklarining faoliyatiga kirib borib, ekin ekishni rejalashtirish, muddatlarini optimallashtirish, urug' navlarini tanlash, agrotexnik ishlov berish, yig'ib-terib olish, mahsulotlarni tashish, saqlash, qayta ishlash va sotishga qadar bo'lgan jarayonlarda yaqin ko'makchi bo'lib ishtirok etishi uchun agrologistika malakali kadrlar bilan butlangan bo'lishi zarur. Mahsulotlar raqobatbardosh bo'lishi uchun ishtirokchilar ishga alohida sub'ektlar sifatida emas, yagona integrallashgan tizim sifatida yondashishi kerak.

Agrologistika xizmati yo'lga qo'yilmasa, ekin maydonlari o'z vaqtida haydalmasa, yoki ekin ekilmasa, agrotexnik tadbirlar bajarilmasa, hosil o'z muddatida yig'ib-terib olinmasa, saqlanmasa yoki qayta ishlanmasa, ularni sotib, ko'zda tutilgan miqdordagi foydani olib bo'lmaydi.

Ayni paytda logistikani tashkil etish tizimida quyidagi muammolar mavjud:

- texnika va transport xizmatlari ko'rsatish tizimi yo'q;
- joylarda omborlar, muzxonalar yetishmaydi;
- qayta ishlash sanoati rivojlanmagan;
- marketing xizmati yetarli darajada tashkil etilmagan va hokazo.

Agroklaster, kooperatsion jamiyatlar, agrotexnopark, agrologistika xizmatlarini tashkil etishda fermer, dehqon xo'jaliklariva tomorqa yer egalari kengashioperatorlik va muvofiqlashtirish vazifalarini bajarishi kerak. Bunday tashkilotlar ishlab chiqarishda halal berayotgan ob'ektiv va sub'ektiv omillarni bartaraf etish, mehnat unumdorligini oshirish, xarajat va isrofgarchiliklarni qisqartirish, samaradorlikni oshirishda katta rol o'ynaydi.

Davlatimiz Butunjahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish uchun taraddud ko'rayotgan ekan, buning uchun agrosanoatni kompleks rivoj-lantirish va bunda agrologistikaning rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

“Ayni paytda agrosanoat sektorida xuddi shunday holat mavjud. Bitta qishloq xo'jaligi atrofida ko'plab tuzilmalar o'z faoliyatini alohida-alohida tashkil etmoqda. Bular fermer xo'jaliklari, suv-dan foydalanuvchilar uyushmasi, ta'minot tashkilotlari va boshqalar. Ularning hamkorligida o'zaro bog'liqlik yetishmaydi. Ular turli tuzil- malardan iborat bo'lganligi uchun ishga munosabati har xil. Bu esa bio-logik xususiyatli ekinlarni yetishtirishda o'ziga xos talablarga javob bermaydi. Shu sababdan qishloq xo'jaligini rivojlantirish muammo-ligicha qolmoqda” [5].

Tuzilmalarning integratsion faoliyatini yo'lga qo'yish uchun agrosanoatni kompleks rivojlantirish jamoatchilik uyushmalarini tashkil etish zarurati nihoyatda yuqori. Bunda faoliyatning yuqori darajadagi uyg'unligi vujudga kelib, rivojlanishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 29.07.2019 y. N PQ-4406.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 11.08.2020 y. N PQ-4803.
3. Madaliev A.A. “Agrosanoatni kompleks rivojlantirishda boshqaruvni demokratlashtirish asoslari” Monografiya. – T.: Navro'z, 2018 y.
4. Kalchenko A.G. Logistika asoslari. - Kiev: Bilim, 2019 yil.
5. Eliseev E. Dunyoni qamrab oluvchi logistika. Korxonani boshqarishning yangi kontseptsiyasi // Marketolog. 2010. № 9. -S12-13.
6. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotnomasi